

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TURKISTON O'LKASIDA JADIDCHILIK HARAKATINING KELIB CHIQISH TARIXI

JADIDIST MOVEMENT IN TURKESTAN

ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ТУРКЕСТАНЕ

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Mansur Shomurodivich Boytemirov

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali telekommunikatsiya texnologiyalari fakulteti 1-kurs talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Muallif tomonidan Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari surganligi, Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganliklari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya", "To'ron," ibratxona, "Munozora".

Abstract:

In the late 19th and early 20th centuries, the national, cultural and enlightenment revival between the people of Central Asia, the Caucasus and Central Siberia, which was a Russian colony, appeared as a motion.

Turkistan Jadids are committed to the liberation of the people from backwardness and religious prejudice, reforming the principles of Shari'a, promoting the nation and achieving national autonomy. Jadids sought for the ways to renew and uplift the society through national unity, spiritual and enlightenment reforms. This article discusses the mentioned ideas of the author.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Keywords: jadid, enlightenment, jadid, national revival, press, autonomy, national idea, "Behbudiya", "Turan", Temple, "Discussion".

Аннотация:

В данной статье рассматривается национальное, культурно-просветительское возрождение, начавшееся среди народов Средней Азии, Кавказа и Средней Сибири, считавшихся в конце 19 - начале 20 века российскими колониями. проявилось как модернистское движение. Джадиды Туркестана продвигают идеи освобождения народа от отсталости и религиозных предрассудков, реформирования принципов шариата, распространения просвещения народа, достижения национальной автономии. Джадиды искали пути обновления и возвышения общества с помощью национального единства, духовных и образовательных реформ. В данной статье рассматриваются моменты, упомянутые автором выше.

Ключевые слова: Джадид, просвещение, Усули Джадид, национальный подъем, печать, автономия, национальная идея, «Бехбудия», «Торан», «Ибратхона», «Мунозора».

“Jadid” atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo’ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko’rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. 1789 yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. Shu yillari “Nizomi jadid” tor ma’noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma’noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo’jaligini zamonaviylashtirishni ko’zda tutar edi.

Demak, jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g’oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo’llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo’layotgan ulkan madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo’lsada, Turkiston o’lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so’zi bilan aytganda, “gazeta o’qig’uvchilarni” mullalar “jadidchi” nomi bilan atar edilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi “Ganch (yosh) turk”lar tashkilotlari tasirida “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” degan nomlarda faoliyat olib borishgan. Gaspirinskiyning o’lka ziyolilariga bergan tasiri haqida Toshkent jadidchilarining otasi deb tan olingan Munavvarqori 1927 yil Toshkent okrug maorif xodimlari



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qurultoyida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarining yetishtirgan kishilari edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil Gaspirinskiy gazetasini o'qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar". Shunday qilib o'lkada yangi maktablar ochishga Ismoil Gaspirinskiy va tatar ziyolilari, muallimlarining ibрати, yordami katta bo'ldi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko'tarilish madaniy-ma'rifiy harakat – jadidchilik sifatida namoyon bo'ldi.

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va "Tarjimon" jurnali tashkilotchisi Ismoil G'aspiralining nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketdi. U Bog'chasaroyda eski maktablarning murakkab o'qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib. Unda o'zi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan Turkistondagi ilg'or ziyolilarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Qisqacha aytganda u yangi usul maktablarning vujudga kelishida namuna bo'lgan. Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o'zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida 19-asr oxiri – 20-asr boshlaridan tarix saxnasiga chiqa boshladilar. Jadidlar Turkistonda 19-asr oxirida paydo bo'lgan ilg'or usullarni yoqlagan ma'rifatparvarlarga bo'lib qolmay, ayni chog'da turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqloq uchun ham kurashni maqsad qilib ko'ygan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloq yoyib rivojlangan bobiylik va bahoilylikdan iborat falsafiy-diniy oqimlar va Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiy» («Yosh turklar» harakati) harakatining ta'siri katta bo'ldi. Bobiylik va bahoilylik XX asr boshlariga kelib Kavkazda, so'ngra Toshkent, Ashxobod va Turkistonning boshqa shaharlarida keng tarqala boshlagan va xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini ko'tarishda katta ta'sir ko'rsatgan. Birgina Toshkentning o'zida bobiylik va bahoilyliklar tarafidan "Turkiston", "Isloh", "Osiyo" va boshqa kutubxonalar, qiroatxonalar tashkil etilgan bo'lib, ular xalqning turli qatlam vakillari o'rtasida ma'rifat tarqatishda katta rol o'ynadi.

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg'onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy – siyosiy harakat edi. O'lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari (davr voqealiklaridan kelib chiqib, ba'zan o'zgarib turgan bo'lsa-da) quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitusion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

O'z zamonasining yetuk jadidchilaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilik haraktining yirik namoyondalaridan biridir. U Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishadi. Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. U "Munozara" nomli drama yaratgan. Shuningdek, "Sayxa", "Sayyohi hindi", "Rahbari najot", "Tarixi islom" kabi asarlarini 1908-1913 yillarda yaratdi. Fitrat o'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qildi. U ana shunday ilg'or g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik, isyonkorlikda ayblandi, chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan qizil saltanat davrida esa millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, «xalq dushmani» degan uydirma tamg'a bilan aybladilar.

Buyuk marifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy- marifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar xozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo yoshlar uchun chinakam ibrat namunasi. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo davit etib turadi.

Xulosa shuki, rus mustamlakachilari Turkiston zamini uzra o'z hukmronliklarini o'tkazgan kezlarda yurtning jonkuyar, millatsevar, erksevar farzandalri jadidlar harakati ta'sirida milliy istiqlol uchun, mustaqil Turkiston uchun, ekspluatatsiya, zo'rlik va zo'ravonlikka qarshi xalqni otlantirdilar. Faqat o'lkada so'nggi asrlar davomida ishlab chiqarish kuchlari va taraqqiyotning orqada qolganligi oqibatida, xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-nazariy saviyasi ham yetarli darajada davr talabiga monand bo'lmaganligidan bu kurash birlashgan katta kuch sifatida muvaffaqiyat qozonildi. Siyosiy-ijtimoiy tarqoqlik, «o'zingni bil, o'zgani qo'y» kayfiyati milliy kayfiyatga, milliy birlikka putur yetkazdi.

Jadidchilik harakatini o'lka xalqlari ommaviy sur'atda qo'llab quvvatlamadilar. Bu harakat faqat xalq orasiga ma'rifat va madaniyat g'oyalarini tarqatishdan nariga o'tmadi, o'zining tor biqiq doirasida o'ralib qoldi, siyosiy kurash partiyasi darajasiga ko'tarila olmadi va ommani zulm va istibdodga qarshi dasturiy kurashga torta olmadi... Jadidlar harakatining nazariy va siyosiy barkamollik darajasiga o'sib yetmaganlikdan rus bolsheviklari ustalik bilan foydalandilar va ularni ikkiga bo'lib yubordilar. Jadidlarning bir guruhi bolsheviklarning yolg'on va quruq va'dalariga ishonib, ular tomoniga o'tdilar, «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» guruhiga uyushdilar. Natijada milliy-ozodlik va istiqlol uchun kurash olib borayotgan kuchlar kuchsizlandi va parokandalikka uchradi. Hozirgi kunda jadidchilik ilm izlash xar birimizni manaviy uyg'oqlik va ogohlikga chorlab, qalblarimizda ulug' ajdodlarimizga xos azmu shijoat tuyg'ularini yuksaltirishga, turkiston o'lkasida do'stlik va qardoshlik ruhini, ilmiy-madaniy aloqalarimizni yanada mustahkamlashga hizmat qiladi, deb ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so'zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
2. 8-9-sinf O'zbekiston tarixi qo'llanmasi.
3. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."Sharq", 1998.
4. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
5. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

6.Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.

7.Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.

8.Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

9.Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

10. www.ziyonet.uz

11. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

